

G'oyimov Umar Eshmurodovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“Boshlang'ich ta'lim” kafedrası o'qituvchisi.
Po'latova Gulandon Fahriddin qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“Boshlang'ich ta'lim” yo'nalishi talabasi.

Anotatsiya: Maqolada ta'lim va tarbiyaning muammolari va bu muammoni bartaraf etish yo'llari haqida fikrlar ko'rsatib o'tilgan. Ta'lim va tarbiya orqali o'quvchilar ongiga ma'naviyatni shakllantirish yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: “Ta'lim”, “tarbiya”, “aql”, “axloq”, “odob”, “mehr”, “insoniylik”, “kelajak” “metod”.

Bilamizki har bir Davlatda ta'lim va tarbiya jarayonlari katta rol o'ynaydi. Shu jumladan bizning yurtimizda ham. Avvalo ta'lim va tarbiya qanaqa jarayon? U bizga nima bera oladi?, degan savollarga javob topamiz.

Ta'lim – bu qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarning maqsadli harakatlari tushuniladi.

Tarbiya esa insonning insonligini ta'minlaydigan eng adabiy qadriyat hisoblanadi. Bizning yurtimizda ta'lim va tarbiya jarayonlari birga olib boriladi. Negaki bizda „Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi degan sharqona qarashlar ko'p uchraydi., Aynan o'sha qarashlarga oid Farobiyning ta'lim – tarbiya yo'llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. Farobiy insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l – ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim na'zariy fazilarlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug'ma fazilat – nazariy bilimlar va amaliy kasb – hunar, xulq-odob fazilarlarini birlashtiradi. Ta'lim so'z va o'rganish bilan tarbiya esa amaliy ish , tajriba bilan amalga oshiriladi deydi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko'nikmalarni qay darajada o'rganganligiga qarab paydo bo'ladi, deb ko'rsatadi. Ikkalasi birga olib borilishi biz uchun yaxshi albatta, ammo chet mamlakatlarida ta'lim jarayonining ozi olib borilsa ham bizdan ancha oldinda.

„Tarbiya – biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir” Abdulla Avloniyning bu qimmatli fikrlari, tarbiya ancha murakkab jarayonligini ko'rsatadi. Avvalo tarbiya oiladan boshlanadi. Ota-Ona qanday yo'lga boshlasa, bola shu yo'lga yo'naladi. Albatta bu ishda ota – onaning o'z o'rni bor. Oilada kattalardan biri kitob o'qisa bola ham bora-bora ularga ergashadi. Demak bolaning tarbiyasi tag zaminida ota-ona turarkan. Ustozlar esa bu yo'lni davom ettiradi va uni ta'lim tizimidan xabardor qiladi. Uni ota-onasi bilan birgalikda porloq kelajak sari yetaklaydi. Bugungi kunga kelib ayrim beparvo ota-

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

onalar bor, farzandining tarbiyasi, o'qishi haqida umuman qayg'urmay qo'ygan, hatto qiziqishmaydi ham, go'yo ular uchun pul toppish birinchi o'rinda bo'lib qolgan. Aslida shunaqa loqayd ota-onalarimiz sababli farzandlarning kelajagiga bolta urilmayaptimi? Sharoit yaratib berishadi, lekin ular uchun kerakli bo'lgan mehr va e'tobor yo'q, bundan farzand qanaqa xulosaga keladi? Albatta yaxshi xulosa emas. Men o'qimasam ham bo'laveradi, ota-onamning pullari ko'p barcha muommolarimni hal qilib beradilar degan g'oyalar paydo bo'ladi. Usha g'oyalarning isboti voyaga yetsak ham ota-onalarimiz ehtiyojlarimizni bajarib berishadilar. Bundan kelib chiqyabdiki, yoshlarimiz mustaqil fikrlay olishmayapti. Bir katta ish boshlamoqchimiz kuchimiz yetmadi, yiqilib qoldik, nima qilamiz ota-onadan najot kutamiz. Chunki bizni shu muhitga o'rgatib bo'lishgan. O'sha orqamizdagi suyanchig'imiz sababli bizda mustaqil fikri bilan ish ko'radigan, savodli kadrlar yetishib chiqmayapti. Mustaqil fikrga ega bo'lgan yoshlar esa kamayib ketgan. Demak, mustaqil fikrlaydigan, o'z kuchiga va bilimiga ishonadigan yoshlarni tarbiyalashimiz kerak ekan. O'sha darajada tarbiyalangan yoshlarimiz esa rivojlangan davlarning yuksalishiga hissa qo'shmoqda. Aynan bizning yoshlarimiz ham chet el grandlarini yutib, chet davlatlarda tahsil olmoqda. Afsuski bizning yurtimizga qaytib kelishmayapti o'sha davlatlarda qolib ketishyapti. Balkim ketgan yoshlarimiz qaytib kelishib, olgan bilimlarini o'zimizda ham qo'llasa, bizning davlatimiz ham yuqori o'rinlarni egallagan bo'larmidi. Men aynan chet davlatda tahsil olishayotgan talabalar bilan suhbatda bo'ldim. Ular o'zimizning ta'lim sohamizning orqadaligi: mustaqil fikrlaydigan yoshlarimizning kam ekanligi, vaqt taqsimotining xatoligi, ko'proq nazariy bilimlarning berilishi va yoshlarimizning kitob o'qimasligi deb aytishdi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda yoshlarning 90% i asosiy axborot manbai sifatida internetga murojaat qilmoqda. Aynan hozirgi kunda yurtimiz shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda yoshlarimiz qo'lga kitob olmay qo'ydi.

Olimlarning aniqlashicha bugungi kunga kelib, kitob o'qiydiganlar 20% ni tashkil etarkan. Ularni ham qariyalar tashkil etarkan, yoshlar emas. Bunga sabab esa axborot vositalari,, Instagram,, „Telegram” , „Google”, „Facebook” kabilar. Demak, biz o'shalarining evaziga talimdan ancha orqadamiz. Yurtimizga kelgan Finlandiyalik professor ham O'zbekiston yoshlaridan juda xafa bo'ldim, chunki birortasining qo'lida kitob ko'rmadim. Juda achinarli holat bunga sabab esa virtual olam. Bizning bobolarimiz yashab o'tgan davrda texnologiya bo'lmagan, shuning uchun ham ular kitob o'qib, ko'p natijalarga erishgan. Kitob barcha bunyodkorlik yaratuvchilik va aql-idrokning, ilm-u donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir deb takidlagan Amir Temur bobomiz. Biz kitobsiz hech qanday natijaga erisha olmas ekanmiz.

Hozirgi kunda men talim-tarbiyani xuddi bemor bilan Ibn Sinoga qiyoslayman. Ta'lim-tarbiya jarayonini bemor deb olsak, yoshlarni esa Ibn Sino deb olamiz. Bemorni davolash uchun dori-darmonlar kerak bo'ladi, biz o'sha dori darmonlar deb, kitob, kompyuter sohasini mukammal bilish, tilni chuqur o'rganish, o'z sohasini puxta egallash va boshqalar. O'sha narsalarni bersakkina bemorimiz tuzalar ekan. Ibn Sino bobomizning bemorga qarata aytgan bir

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

chiroyli fikrlari bor: „Agar sen, men tarafga o'tsang, seni yengishim oson, agar kasallik tarafga o'tib olsang, ikkalangni yengishim qiyin bo'ladi". Demak bemor bilan davolovchi tabib birgalashib kurashsa, albatta, kasallikni yengish oson bo'ladi. Biz yoshlar ham yaratib berilayotgan sharoitlardan oqilona foydalanib, yangiliklar yaratsak, ta'lim sohasiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

Bemorimizni davolashga yordamlashgan bo'lamiz. Hozirgi kunga kelib ta'lim jarayoni ham aynan Ibn Sino kabi yoshlarga muhtoj. Yuqori marralarni zabd etish ham aynan biz yoshlar qo'lida. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng yurtimizda ta'lim tizimini isloh etishga katta etibor qaratilgan. Hozirda ta'lim sohasida bir qancha yutuqlarga erishdik. Bu yutuqlar bizniki, albatta.

Fan-texnika sohasida ham ancha o'zgarishlar yuz beryapti. Lekin texnologiyani biladiganlar kamchilikni tashkil etadi. Shu bois ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasidagi bir qator vazifalar belgilab qo'yilgan. Aynan Prezidentimizning Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida,, eng katta boylik-bu aql zakovat, ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik- bu bilimsizlikdir deya alohida qayd etdilar. Ma'lumki, har qanday kishida muhim bir bezak bor. U insondagi aql va odob go'zalligidir. Ushbu go'zallik kishiga hayotda o'z o'rnini topishda muhim manaviy asosdir. Inson hayotda o'z o'rnini topishi, ikki dunyo saodatiga erishish, yurtining taraqqiyotiga hissa qo'shishi va shu vatanga munosib bir farzand bo'lishini ta'lim-tarbiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Buni biz qushning ikki qanoti bo'lmasa osmonga ko'tarilib, ko'klarga parvoz qila olmaganiga qiyoslay olamiz. Yoshlar kim? Yoshlar-ertangi kun bunyodkorlari. Shuni unutmasligimiz kerakki, yurt kelajagi, vatanimiz taraqqiyoti va xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimiz va yoshlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liqdir. Ulug' donishmand, shoir, mutafakkir, Jaloliddin, Rumi farzand tarbiyasi borasida shunday yozadi: „Ey aziz inson!" Himmat qilib nihol o'tkazdingmi? Endi gayratingni susaytirma. Parvarishni chiroyli davom ettirib, xayrli mevasini o'zgalarga ko'rsat va baxsh et. Barchani ko'z o'ngida o'zingni er bilib tugunni yechding, endi ichida nimalar borligini bir-bir namoyish qil.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 8- oktabrdagi PF-5847-son farmoni
2. I.A.Karimov „ Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asari Ma'naviyat nashriyoti 2008- yil
- 3.A.A.Ibn Sino,, Tib qonunlari "asari Toshkent Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1992- yil